



O‘ZBEK ADABIYOTIDA PSIXOLOGIZM MUAMMOSINING O‘RGANILISHI

Ro‘ziyeva Yulduz Qahramon qizi

ToshDO‘TAU 1- bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada adabiyotshunos olimlarimizning badiiy asar tahlilida psixologizmning o‘rni masalasi, xususan, qahramon ruhiyati tasviri bilan bog‘liq tadqiqotlari xususida fikr-mulohazalar berilgan.

Kalit so‘zlari: psixologizm, muallif, xarakter, dinamik prinsip, analitik prinsip, sinkretik prinsip, psixologik tahlil.

Аннотация: В данной статье изложены мнения наших литературоведов относительно вопроса о роли психологизма в анализе литературного произведения, в частности, исследованиях, связанных с образом психики героя.

Ключевые слова: психологизм, автор, персонаж, динамический принцип, аналитический принцип, синкретический принцип, психологический анализ.

Abstract: In this article, the opinions of our literary scholars are given regarding the question of the role of psychologism in the analysis of the literary work, in particular, the research related to the image of the hero’s psyche.

Key words: psychologism, author, character, dynamic principle, analytical principle, syncretic principle, psychological analysis.



Ma'lumki, har qanday asarni yaratishdan ijodkorning o'z oldiga qo'ygan aniq bir maqsadi bo'ladi. Xususan, shoirlar ham, yozuvchilar ham o'sha maqsadga erishishni niyat qilib, qo'llariga qalam olgan holda oq qog'oz yuziga dog'lar paydo qiladilar. Shu o'rinda bir narsani ta'kidlab o'tish kerakki, "asar bitish ijodkor uchun dunyoni, olamni qayta yaratishday mashaqqatli jarayon. Ehtimol, Parvardigori olam dunyoni, tiriklikni, koinotni yaratishdagi qudratni, ulug'vorlikni, mashaqqat va zalvorni, maqsad va zavqni, tugallik va mukammallikni inson ozgina bo'lsa ham tuysin deb uning ruhiga ijodkorlikni kiritib qo'ygandir? Har qalay, ijodkorlik men uchun iloh bilan bog'lanish, uni tuyish, zavq olish va unga tomon yuksalib, mukammalikka intilish, Yaratganning yaratganlariga taqlid qilish bo'lib tuyuladi. Asar bitish – yaratish iztirobi"¹.

Shoir-u yozuvchilar, ayniqsa, yozuvchilar o'z asarlarida nafaqat jahon ahamiyatiga molik muammolarni, balki insonning kundalik hayotida sodir bo'lgan, bo'layotgan va bo'lishi mumkin bo'lgan oddiy masalalarni ham ko'tarib chiqadilar. Ushbu muammo-yu masalalarni yoritishda, o'z navbatida, turli badiiy tasvir vositalari bilan bir qatorda psixologik tasvir vositalaridan ham foydalanishadi. Asarda muallif tomonidan qahramon ichki dunyosiga chuqur kirib borish, obraz ruhiy olamining batafsil tavsifi, qalb kechinmalarining tasviri – "badiiy psixologizm" deb yuritiladi.

Bu borada o'zbek adabiyotshunoslaridan A.Alimuhamedov, H.Umurov, D.Quronov kabi olimlar muhim tadqiqotlar olib borganlar.² Jumladan, professor Bahodir Karimovning ta'kidlashicha, adabiyotshunoslikdagi psixologik metod (psixogenetik maktab) XIX asr 70-80-yillarida G'arbiy Yevropa va Rossiya ilmiy muhitida yuzaga keldi.

Psixologizm, Abdulla Qahhor tili bilan aytganda, yozuvchi mahoratining muhim jihati hisoblanadi. Bunda yozuvchi qahramon ichki dunyosini, psixologiyasini o'z uslubi

¹ Nazar Eshonqul. Ijod falsafasi ("Men"dan mengacha - 2). T., "Akademnashr", 2018-yil, 16-bet

² Alimuhamedov A. Abdulla Qahhor hikoyalarida psixologik tasvir // O'zbek adabiy tanqidi (Antologiya). T., "Turon-iqbol", 2011-yil, 544-bet, B.51-64. Umurov H. Badiiy psixologizm va hozirgi o'zbek romanchiligi. T., "Fan", 1983-yil. Quronov D. Roman haqida ayrim mulohazalar. 22.03.2013 web: www.ijod.uz.



orqali ochib beradi. Unda yozuvchi ichki monolog, nutqiy xarakteristika, psixologik portret, galyutsinatsiya, tush kabi psixologik tasvir vositalaridan foydalanib, qahramon ichki olamini ochib beradi. Bunda yozuvchi qahramoniga tashqi dunyoga faqatgina ichki dunyosini yoritib berish uchungina murojaat qiladi.

Psixologik tahlilni xarakterlarni tasvirlashning ichki (monolog, xotira, assotsiyatsiyalar va tasavvur obrazlari) va tashqi (mimika va psixikaga doir boshqa tashqi ko‘rinish holatlarining hissiy o‘ziga xosligini namoyon qilish) formalariga ajratish mumkin.

Psixologizm badiiy asarda bevosita muallif mulohazasi yoki qahramonlarning o‘z-o‘zini tahlil qilishi shaklida va yoki bilvosita qahramonlar mimikasi, xatti-harakatini ko‘rsatish shaklida amalga oshiriladi.

Ba’zi tadqiqotchilar psixologizm deganda adabiyotda insonlar xarakteri tasvirini tushunadilar, xolos. Biroq ular har qanday tasvirga emas, balki xarakter “tirik qadriyat” sifatida bo‘y ko‘rsatadigan tasvirga nisbatan shunday fikrda bo‘lsalargina to‘g‘ri bo‘lur edi. Holbuki, inson ichki dunyosini tasvirlash – psixologizm – bu obrazni qurish, tasvirlash, u yoki bu hayotiy xarakterni tushunib yetish va baholash usulidir.

Adabiyotda psixologizm muammosini o‘rganar ekan, A.Iyezuitov “psixologizm” tushunchasining o‘zi ko‘p ma’noli ekanligini qayd etib, uni uch jihatdan ta’riflaydi:

- 1) “psixologizm” so‘z san’atining turga xos belgisi sifatida”;
- 2) “badiiy ijod mahsuli, muallif, uning personajlari va kengroq – jamiyat psixologiyasining ifodasi”;
- 3) “ongli va estetik tamoyilni belgilovchi” psixologizm sifatida”³.

“Badiiy psixologizm bu qahramonlarning g‘oyaviy-ruhiy izlanishlarini o‘zida mujassam etgan badiiy shakl, inson xarakterining shakllanishini, shaxs dunyoqarashidagi

³ Иезуитов А.Н. Проблема психологизма в эстетике и литературе/ Проблемы психологизма в советской литературе. – Л.: 1970. – 30-стр



asoslarni adabiyot tomonidan o'zlashtirilish shaklidir. Psixologizmning ma'rifiy-muammoviy va badiiy qimmatiga, eng avvalo, shunda ko'rinadi"⁴.

M.M.Baxtin fikricha, "kundalik turmush odami sifatida emas, ong va orzu subyekt sifatida bo'y ko'rsatgan", "maxfiylik"da yashayotgan g'oyaviy qahramonning o'z-o'zini anglashi F.M.Dostoyevskiy romanlarining badiiy dominanti bo'ldi: "Muallif hissiyoti (xayoloti) aynan uning (qahramonning) o'zini o'zi anglashiga va bu o'z-o'zini anglashning chorasizligi, tuganmasligiga yo'naltirilgan"⁵.

Dostoyevskiyning psixologizmi – bu ongning qo'nimsizligiga, inson ichki dunyosidagi turli tebranishlarga, shaxsiyatining chuqur qatlamlariga bo'lgan astoydil qiziqishning badiiy ifodasidir. Qahramonning o'zini bilishi, his etishi, anglashi – "qalb dialektikasi"ni o'zlashtirish adabiyot sohasidagi eng muhim kashfiyotlardan biri bo'ldi.

Psixologizmning turlicha formalari mavjud. F.M.Dostoyevskiy, L.N.Tolstoy, M.Sholoxov, U.Folkner, A.Qodiriylar ijodi oshkora, ochiq, "namoyishkorona" psixologizmga xosdir. Ayni paytda XIX-XX asr yozuvchilari inson ichki olamini o'zlashtirishning yana boshqa usuliga ham tayanishadi. Bu o'rinda I.S.Turgenevning so'z rassomi "yashirin" ruhshunos bo'lishi lozimligi haqidagi fikrlari ahamiyatlidir. Adib asarlarining qator epizodlari uchun gapirib bo'linmaganlik va aytib bo'linmaganlik xarakterli ekanligi ham shundan bo'lsa, ajab emas. Qahramon ongidagi o'ylar, hislar bor-yo'g'i biroz seziladigan "matn ostida" yashiringan psixologizm A.Chexov va A.Qahhor qisalarida, hikoyalarida ko'proq uchraydi.

Psixologizm G'arbiy Yevropa adabiyotida XVIII asrning ikkinchi yarmida paydo bo'lgan (sentimentalizm davri, bu davrda epistolyar va kundalik yondaftarlar yuritish ommaviy bo'lgan).

XIX asr G'arbiy Yevropa va rus adabiyotida (Stern, Stendal, Lermontov) psixologizmning analitik prinsipi yuzaga kelgan bo'lib, bu psinsip L.N.Tolstoy tomonidan

⁴ Есин А.Б. Психологизм русской классической литературы. – М.: Просвещение, 1988. – 176-стр

⁵ Бахтин М.М. Проблемы поэтики Достоевского. – М.: – 85-стр



cho‘qqiga ko‘tarildi. U bu prinsip “qalb dialektikasi” formasining hali ochilmagan qirralarini kashf qildi. Hayotning har xil tomonlarini badiiy aks ettiruvchi, bir-biri bilan dialektik aloqada bo‘lgan epos va psixos (tashqi koinot bilan ichki koinot) ning mustahkam uyg‘unligiga va uning va uning go‘zal ifodasiga erishdi.

XIX-XX asrlar adabiyotida psixologizm intensiv tiklandi va qaror topdi. Buning chuqur madaniy-tarixiy sabablari bor. Bu, birinchi navbatda, yangi zamon olamida o‘zini o‘zi anglashning faollashuvi bilan bog‘liq. Zamonaviy falsafa ongni “o‘zini o‘zi amalga oshiradigan” va “o‘zini o‘rganadigan” ongga bo‘lib o‘rganadi⁶. So‘nggisini o‘zini o‘zi anglash deb deb nomlashadi. O‘zini o‘zi anglash “o‘ziga qaytish hodisasi”dan iborat refleksiya ko‘rinishida amalga oshadi. Ayni paytda, “ongning o‘z-o‘zini bilishdan ustunligi”⁷ inson hayotining ajralmas xususiyati bo‘lganligi uchun refleksiyalar ma‘lum doira ichida harakat qiladi.

Adabiyotshunos H.Umurov fikricha, o‘zbek adabiyotshunosligida dastlabki yuzaga kelgan tadqiqotlarda psixologizm alohida muammo sifatida o‘rganilmagan⁸. Balki u yoki bu asarda yaratilgan xarakterlarning psixologik jihatdan ishonchliligi, tabiiyligi yoritilgan⁹. Badiiy tadqiqotlarda psixologizmning portret, peyzaj, dialog, dialog, nutq kabi komponentlari o‘rganilib, ularning muayyan asarda tutgan umumiy mavqeyi, uslubiy xususiyatlari tekshirilgan¹⁰.

Yana shuni alohida qayd etib o‘tish o‘rinliki, psixologizm muammosi o‘tgan asrning 70-yillariga kelib, maxsus tadqiqot obyektiga aylangan. Xususan, N.Shodiyevning “Abdulla Qahhorning psixologik tahlil mahorati (“Sarob”, “Sinchalak” asarlari misolida)”, M.Abdurahmonovanning “Abdulla Qodiriy ijodida psixologik tahlil mahorati” nomli

⁶ Рикер П. Конфликт интерпретаций: Очерки о герменевтике. – М.: 1995 – 339-стр

⁷ Рикер П. Герменевтика. Этика. Политика Московские лекции и интервью. – М. 1995 – 78-стр

⁸ Umurov H. Badiiy psixologizm va hozirgi o‘zbek romanchiligi. T., “Fan”, 1983-yil, 12-13-bet

⁹ Umurov H. Saylanma. 1-jild. Risolalar. T., Fan, 2007; Qo‘shjonov M. Abdulla Qodiriyning tasvirlash san‘ati. T., 1966; Qo‘shjonov M., Normatov U. Mahorat sirlari. T., 1968-yil

¹⁰ Shermuhamedov P. Ruhiy dunyo ko‘zgusi. T., 1971-yil; Sultonova M. Yozuvchi uslubiga doir. T., 1973



nomzodlik dissertatsiyalari vujudga keldi hamda shu tadqiqotlar mazmunini o'zida aks ettirgan bir qancha maqola va risolalar e'lon qilindi. Masalan, B.Sarimsoqovning "Dostonlarda psixologik tasvirning xarakteri haqida ba'zi mulohazalar" asari yaratildi.

Shuni ta'kidlash joizki, muayyan yozuvchining ijodini yoki uning ma'lum romanini psixologizmning konkret bir shakli bilan cheklash mumkin emas. Adabiyot tajribasi shuni ko'rsatadiki, har bir yozuvchi o'z ijodida (yoki ma'lum bir romanda) psixologizmning turli shakllaridan keng foydalanadi. Biroq bu formalardan birortasi yetakchilik qilishi tabiiydir¹¹.

Shuningdek, H.Umurov psixologizmning formalari haqida yana shunday fikrlarni bildiradi: "... Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida xarakterning qirralarida tahlil etish forma hisoblanadi. Abdulla Qahhorning "Sarob" romanida qalb dialektikasi asosiy forma hisoblansa, Oybekning "Qutlug' qon" romanida esa ijtimoiy munosabatlar va maishiy to'qnashuvlarning xarakterlarga ta'sirini tahlil qilish birinchi planga chiqadi".

Adabiyotshunos H.Umurov fikricha, hozirga qadar o'zbek nasrida qahramon psixologiyasini ochishning uch xili ko'zga yaqqol tashlanadi.

Dinamik prinsip – romanda yozuvchi uchun ichki dunyoning – ruhning kechinmalarini tashqi qiyofa, holat va xatti-harakatlarda ko'rinishini tasvirlash. Hissiyotning dinamik ravishda, (bosqichma-bosqich) rivojlanib borishi. Rivojlangan sayin qahramon qalbi o'zining borlig'ini namoyon etadi.

Analitik prinsip – qahramonlarning ruhiy dunyosini ularning xatti-harakatlari, qiliqlari orqali ochib berish bilan birga, fikrlar va hislar oqimini, dialektikasini ham ko'rsatib berish. Psixologizmning dinamik va analitik prinsiplari, garchi, bir-biriga qarama-qarshidek tuyulsa-da, lekin ularni o'zaro zid qo'yish ham noo'rin. Bu prinsiplar ba'zi romanlarda uyg'unlashgan holda ko'zga tashlanadi. Bunday asarlarda qahramonlarning ruhiy dunyosi ularning xatti-harakatlari, qiyofalari orqali yechilishi bilan birga, ayni paytda, shu qahramonlarning fikr va hissiyotlari dialektikasi oqimi ham beriladi. Bu xil romanlarda

¹¹ Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. T., "Xalq merosi" nashriyoti, 2004-yil, 50-52-betlar



psixologizmning ushbu ikki prinsipi dialektik birlikda tahlil etiladi. Bu psixologizmning **sinkretik prinsipidir**.

Xullas, psixologizm (uning dinamik, analitik va sinkretik prinsiplari) barcha realist yozuvchilar uchun umumiydir. Har bir yozuvchining bu boradagi o'ziga xosligi – psixologizmning turli vositalardan qanday va qay darajada foydalanishiga bog'liqdir.

H.Umurov dinamik va analitik prinsiplarni uyg'un holda sinkretik prinsip, deya baholaydi. Lekin, bizningcha, ushbu fikrga ham nisbiy qarash lozim. Badiiy asarda dinamik va analitik prinsiplarning yonma-yon kelishini alohida bir prinsip darajasida baholash shart emas. Uni shunchaki sinkretik forma sifatida olish ham mumkin.

Demak, psixologizmning tipologik, sinkretik, qalb dialektikasi, xarakter qirralarini tahlil etish, ijtimoiy ziddiyatlarning xarakterlarga ta'siri kabi bir qancha formalari mavjud.

Psixologizmning turli xil formalari bo'lganidek, uning bir qator poetik vositalari ham mavjud. Adabiy portret, monolog, dialog, tush, psixologik timsollar, hissiy harakatlar, peyzaj, galyutsinatsiya kabi vositalar qahramon ichki dunyosini ochishda qo'llaniladigan vositalar hisoblanadi.

Adabiyotshunos olim N.Shodiyev “Ruhiyat rassomi” risolasida “qalb dialektikasi”ning (N.G.Chernishevskiy bu termini adabiy qahramon his va kechinmalarining paydo bo'lishi va rivojlanishi jarayoni, deb ta'riflaydi) asosiy poetik vositalari – ichki monolog, nutqiy xarakteristika, psixologik portret, hislarning tashqi ekspressiyasi, galyutsinatsiya, tush, psixologik timsollar va ularning turli xususiyatlarini tahlil qiladi¹².

O'tgan asr oxiriga kelib, adabiyotda analitik yo'sindan sinkretik prinsip foydasiga siljish kuzatildi, bunda to'g'ridan to'g'ri, bevosita tasvir usullari emas, balki bilvositalik ustunlik qiladi. Shuningdek, ong osti sohasiga yanada sinchkovlik bilan nazar tashlash holatlari ham psixologizm taraqqiyotining bosh mezoniga aylandi.

¹² Shodiyev N. Ruhiyat rassomi. T., “Fan”, 1977-yil, 30-bet



Boshqa tadqiqot ishlarida ta'kidlab o'tilganidek, psixologizm masalasi, mohiyat e'tibori bilan, murakkab xarakterga ega. Chunki unda obyekt va subyekt chambarchas aloqadorlikdadir, shu bilan birga, subyektning roli anchayin katta ekanligini ham unutmasligimiz kerak. Zero, insonning hayotdagi ijtimoiy-estetik o'rni ruhiyati va ma'naviy boyligi orqali aniqlangani kabi xarakter tasvirida ham shaxsiy-psixologik aspektning roli nihoyatda beqiyosdir.

Yuqorida keltirilgan ta'rif-u tavsiflardan shuni anglashimiz mumkinki, badiiy psixologizm muammosi hali-hanuz adabiyot olamida o'rganilib kelinayotgan dolzarb masalalardan biridir desak, mubolag'a bo'lmaydi. Shu sababli ko'pgina yetuk nazariyotchi olimlar bu masala yuzasidan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borganlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Alimuhamedov A. *Abdulla Qahhor hikoyalarida psixologik tasvir // O'zbek adabiy tanqidi* (Antologiya). T., "Turon-iqbol", 2011.
2. Nazar Eshonqul. *Ijod falsafasi ("Men" dan mengacha - 2)*. T., "Akademnashr", 2018.
3. Quronov D. *Roman haqida ayrim mulohazalar*. 22.03.2013 web: www.ijod.uz.
4. Shodiyev N. *Ruhiyat rassomi*. T., "Fan", 1977.
5. Shermuhamedov P. *Ruhiy dunyo ko'zgusi*. T., 1971-yil; Sultonova M. *Yozuvchi uslubiga doir*. T., 1973
6. Umurov H. *Adabiyotshunoslik nazariyasi*. T., "Xalq merosi" nashriyoti, 2004.
7. Umurov H. *Badiiy psixologizm va hozirgi o'zbek romanchiligi*. T., "Fan", 1983.
8. Umurov H. *Saylanma. 1-jild*. Risolalar. T., Fan, 2007.
9. Qo'shjonov M., Normatov U. *Mahorat sirlari*. T., 1968.
10. Бахтин М.М. *Проблемы поэтики Достоевского*. – М.
11. Иезуитов А.Н. *Проблема психологизма в эстетике и литературе/ Проблемы психологизма в советской литературе*. – Л.: 1970.



12. Есин А.Б. *Психологизм русской классической литературы*. – М.: Просвещение, 1988.
13. Рикер П. *Конфликт интерпретаций: Очерки о герменевтике*. – М.: 1995.
14. Рикер П. *Герменевтика. Этика. Политика Московские лекции и интервью*. – М. 1995.